

XORAZM VOHASI ETNOLOGIYASI TARIXSHUNOSLIGIGA OID BA'ZI  
MULOHAZALARI

Baxtiyorova Oltinoy Baxtiyor qizi

Sobirov Shokir Ergahovich

*TTA Urganch filiali akademik itseyi tarix fani o'qituvchilari*

**Maqolaning qisqacha mazmuni:** *Mazkur maqolada Xorazm vohasi etnologiyasini, sobiq sho'rolar davrida Xorazm alohida tarixiy etnografik viloyat sifatida birinchi marta ilmiy jihatdan jiddiy tadqiq qilina boshlanishi va bu boradagi dastlabki tadqiqotlarni tarixshunoslik nuqtai-nazaridan ochib berishgaharakat qilindi.*

**Аннотация:** *В этом статье освещена роль топонимических источников в проблеме истории возникновения городов Хорезма.*

**Annotation:** *This article highlights the role of toponomic sources in the problem of the history of the emergence of the cities of Khorezm.*

Tarixshunoslik nuqtai-nazaridan qaraydigan bo'lsak, sobiq sho'rolar davrida Xorazm alohida tarixiy etnografik viloyat sifatida birinchi marta ilmiy jihatdan jiddiy tadqiq qilina boshladi. Bu boradagi dastlabki tadqiqotlar O'rta Osiyo bo'ylab milliy chegaralanish va rayonlashtirish maqsadida o'tkazilgan ishlar natijasi o'laroq amalga oshirilgan

Demak, Xorazm etnologiyasini o'rganishning dastlabki bosqichi bu XX asrning 20-yillarini o'z ichiga oladi. Buborada I.P. Magidovichning "Материалы по районированию Средней Азии. Территория и населения Бухары и Хорезма." asari va undagi etnik ma'lumotlar, L.V. Oshaninning o'lka aholisining antropologiyasi va etnogenezi bo'yicha tadqiqotlari, shuningdek I. Polivanovning lingvistika sohasidagi ishlari, I.V. Pyankovning Xorazm haqidagi asarlari hanuzgacha Xorazm o'zbeklari va ularning urug'-qabila guruhlari, jismoniy tipi to'g'risida bir muncha to'liqroq ma'lumot beruvchi asarlar sifatida e'tirof etib kelinmoqda.

XX asrning 40-yillaridan boshlab Xorazm tarixida etnografik bilimlarning taraqqiyoti kuzatiladi. Ayniqsa, vohaning etnik tarixi muammolariga bo'lgan e'tibor kuchaydi. 40-50 yillarda Xorazm vohasining turli rayonlariga yirik tadqiqot o'tkazish maqsadida maxsus marshrutli ekspeditsiyalar tashkil etildi. Bu ekspeditsiya natijalari o'laroq 16 tomlik "Труды Хорезмской экспедиции", 9 томлик «Материалы Хорезмской экспедиции», 5та kitobdan iborat "Низовья Сирдарьи в древности" kabi ko'p seriyalik yirik ilmiy asarlar dunyoga keldi.

ХАЕЕ tarkibidagi ko'plab olimlarning Xorazm etnologiyasi uchun qilgan xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tmoq zarur.

Tolstov S.P. (1907-1976 y. Sankt-Peterburg). Yirik etnograf. Qomusiy bilim sohibi. Jahon ilmiy jamoatchiligini Xorazm sivilizatsiya bilan birinchi tanishtirgan olim. 1932-1969 yillarda ХАЕЕ ni boshqargan. Ikkinchi jahon urushi arafasida g'arb olimlari orasida tarqalgan "Sharq mamlakatlari azaldan sira bartaraf qilib bo'lmaydigan turg'unlikka mahkumdir" degan noxolis da'volarini dalil-ashyolar asosida fosh qilishni Xorazm materiallari asosida amalga

oshirishga intilgan. Uning samarali mehnati natijasida shu kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan o'nlagan yirik ilmiy asarlar, risolalar (300 dan ortiq) dunyoga keldi va fan olamida ulkan kashfiyot sifatida baholandi. Uningengyirikasarlari "Древний Хорезм". Опыт историко-археологических исследований. М. 1948., «По следам древнехорезмской цивилизации» М. 1964., «По древним дельтам Окса и Яксарта» . 1961 va boshqalardir. S.P.Tolstov o'z asarlarida Xorazm vohasi aholisining etnogenezi, etnik tarixi, etnik tarkibi, moddiy va ma'naviy madaniyati, xo'jalik tiplari ,zargarlik, kulolchilik va to'qimachiligi , shuningdek urf-odatlarini haqida faktik materiallarni o'quvchiga yetkazib bergan. Olimning Xorazm haqidagi asarlari jahonning ingliz,frantsuz,nemis , chex,rumin,venger, polyak va urdu kabi o'nlab tillariga tarjima qilingan.S.Tolstovning Xorazm tarixini yoritish uchun qilgan xizmatlarini boshqa biron-bir asar yoki biron-bir olimning ishi bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

K.L Zadixinaning ilmiy ishlari quyi Amudaryoda yashovchi ko'chmanchi o'zbeklarning joylashuvi, ularning etnik tarkibi va etnografiyasiga bag'ishlangan va u Xorazm etnologiyasini ancha to'ldiruvchi ma'lumotlar bergan.

M.V Sazonovning tadqiqotlarida Janubiy Xorazm aholisining moddiy madaniyati tarixi, badiiy hunarmandchilik texnikasi, turmush, tarzi, uy-joy qurilish masalalari o'z aksini topgan.

G.P Snesarev o'zining vohaga bag'ishlangan etnografik ishlarida aholining udumlari, urf-odatlarini , sunnat to'yi, urug'-qabilachilik munosabatlari,dafn marosimlari, diniy e'tiqodi bilan bog'liq rasm-rusumlarni ifoda etgan.

Dastlabki davrlarda Xorazm etnologiyasi bo'yicha kompleks tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa, XX asrning 60 yillaridan boshlab fanda alohida bir sohaga bag'ishlangan ilmiy ishlar qilish urf bo'la boshladi. Quyida biz alohida mavzularning alohida tadqiqotchilari haqida gapiramiz. O'ylaymizki , bu ma'lumotlar kelgusida Xorazm etnologiyasi mavzusiga qiziqqan tadqiqotchi va o'quvchilari uchun asqotadi.

Xorazm aholisining kelib chiqishi va etnik tarkibi masalalari bo'yicha akademik K.Sh.Shoniyozov va I.M.Jabborovlarning xizmatlarini ta'kidlash zarur. Akademik A.A.Asqarov(8) Xorazm va xorazmliliklar haqida yangi kontseptsiya yaratdi. U o'zining ba'zi ilmiy maqolalari orqali olimlarning Xorazm tarixining eng qadimgi davri haqidagi qarashlarini jiddiy taftish qildi. Vohaning XIX-XX asrlardagi etnik tarkibi bo'yicha G.P.Snesaryov va M.T.Jumaniyozovalarning maxsus tadqiqotlari mavjud.Voha aholisining antropologiyasi bo'yicha eng mukammal tadqiqotlar L.V.Oshaninning Xorazm o'zbeklariga bag'ishlangan antropolik tadqiqoti, T.A.Trafimova vohaning qadimgi aholisining jismoniy tipi tahlil etilgan asari va T.K .Xodjayovning ajdodlarimiz qiyofasini bizga to'laqonli tushuntirib bera olgan risolalari ekanligi aytib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Xorazm tili,shevasi va yozuvi -voha aholisining o'ziga xosligini aks ettiruvchi eng asosiy xususiyatlaridan biri. Bu borada olimlar juda ko'p ter to'kkanlar. F.Abdullaev, X.Abdullaev, Z.Do'simov larning maxsus tadqiqotlarida ana shu mavzu yoritilgan.

Xorazm uy-joy masalalari bo'yicha Ye.E.Nerazik tomonidan dastlabki tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsa, A.N.Jilina, G.P.Vasil'eva, B.I.Vaynberg va V.L.Voroninalarning ishlarida ham bu muammoga tegishlicha yondoshilgan. Ko'pgina arxeologlar ham o'z asarlarida

Xorazm uy-joy qurilishining ba'zi jihatlarini yoritganlar, Q.Sobirov va G'.Xojaniyazovlar shular jumlasidandir.

X orazm milliy liboslari va taqinchoqlari borasida juda ko'p olimlar u yoki bu darajada qalam tebratganlar. L.Pugachenkova, Abdullaev T.A, Hasanova S.A, N.Sodiqova va boshqalar. Biroq, Sh.Nurullaevaning "Xorazm an'anaviy kiyimlari" monografiyasi aynan vohaga xos lokal xususiyatlarga bag'ishlangan.

Hunarmandchilik sohasida qilingan ishlarni biz Xorazm etnologiyasining eng mukammalroq yoritilgan tomoni desak asoslidir. Zero ,bu borada sobiq sovet davri rus olimlaridan tashqari, mahalliy olimlarning xizmatlari kattadir. I.M.Jabborov, T.P.Abdullaevlarning shu mavzudagi ilmiy tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

Xorazm folklori, musiqa va raqsi, teatri to'g'risida qilingan ishlarning salmog'i kattadir. T.Qilichev, S.Ro'zimboev, G.Matyoqubova, N.Qurbonboevalarning ishlari shular jumlasidandir.

Xorazm taomlari to'g'risida qilingan ilmiy ish yo'q, biroq 1905 yildv Xivada bo'lgan rus sayyohi A.N.Samoylovich bir qancha ma'lumotlar yig'ib qoldirgan va chop qilishga ulgurmagan. B.Do'sjanovning esa "Xorazm taomlari" nomli risolasi mavjud. Tarix fanlari nomzodi M.Jumaniyozovning esa uch tilda chop etilgan "Xorazm taomlari tarixidan" nomli monografiyasi 2016- yilda chop etildi.

Xorazmda qo'ni-qo'shnichilik va mahallachilik mavzusida ko'proq A.Abdurasulovning ishlarini ko'rsatib o'tmoq joizdir. Xorazm gilamchiligi ,kulolchililigi, zargarligi, pichoqchiligi ,urf-odat va marosimlari to'g'risidagi yuzlagan maqolalarni biz bibliografiyada ko'rsatib o'tamiz

Xorazm dafn marosimlari va toshlar magiyasini , Xorazm bayranlari va sayllari , xalq o'yinlari, shuningdek xorazm xarakterini aks ettiruvchi bironta asar yo'q. Va bu mavzular o'z tadqiqotchilarini kutmoqdalar.

Xorazm etnologiyasining manbashunosligi va tarixshunosligiga nazar tashlar ekanmiz, bu borada hali juda ko'p tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borishi muqarrar ekanligini yana bir bor ta'kidlamog zarur. Zero, mavjud manbalarning ko'pchiligi hali o'rganilmagan. XIX asr va XX asrning birinchi choragiga doir qozi xatlari , vaqfnomalar, xon yorliqlari, arxiv hujjatlari mavjudki, ularda voha etnologiyasiga taalluqli ajoyib ma'lumotlar

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Абулғозий «Шажараи турк» Тошкент-1992
2. Бартольд В.В. Туркестан при исламе // Соч., т.2, ч. 1. – М., 1963, с. 209.
3. Боголюбов М.Н. Древнеперсидские этимологии// Древний мир. – М., 1962, с. 368-370.
4. Гумилев Л.Н. Древняя русь и великая степь.-М.: Мысль, 1989, с.127-128.
5. Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т. I. – М.-Л., 1938.
6. Неразик Е.Е. К проблеме развития городов Хорезма // В кн.: Культура и искусство древнего Хорезма. – М.: «Наука», 1981, с. 219-227.
7. Норкулов Н.К. Беруний ва Хоразм. Тошкент, 1973, 23-24-бетлар.

8. Снесарев Г.П. Большие семейные захоронения у оседлого населения Левобережного Хорезма // КСИЭ. Вып. 33. – М., 1960, с. 60-71.
9. Снесарев Г.П. Объяснительная записка к "Карте расселения узбеков на территории Хорезмской области (конец XIX – начало XX в.). // В сб.: Хозяйственно-культурные традиции народов Средней Азии и Казахстана. – М., 1975, с. 88.